

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

PROGNOZDAN ORTIQ SOLIQ TUSHUMLARINI HUDUDIY BUDJETLARDA QOLDIRISHNING TABAQALASHTIRILGAN MEXANIZMI

Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li

Guliston davlat universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: h.alimqulov@tsue.uz

Annotatsiya. *Maqolada prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning soliq turi va hudud holatiga qarab tabaqalashtirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan. Mezonlar tizimi asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, foyda solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i uchun 40,2, 21,1 va 4,2 foizlik normativlar asoslanib, mexanizm Sirdaryo viloyatida sinovdan o‘tkazilgan.*

Kalit so‘zlar: *prognozdan ortiq tushum, budjetlararo munosabatlar, taqsimlash normativi, hududiy budjet, mahalliy budjet, fiskal rag‘bat, tartibga soluvchi transfert, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, fiskal federalizm, Sirdaryo viloyati.*

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ МЕХАНИЗМ СОХРАНЕНИЯ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ СВЕРХ ПРОГНОЗА В ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ БЮДЖЕТАХ

Алимкулов Хикматулла Бахром угли

докторант Гулистанского
государственного университета
E-mail: h.alimqulov@tsue.uz

Аннотация. *В статье разработан механизм сохранения налоговых поступлений сверх прогноза в территориальных бюджетах, дифференцированный по виду налога и положению региона. На основе критериев обоснованы нормативы 40,2, 21,1 и 4,2 процента для налога на доходы физических лиц, налога на прибыль и НДС; механизм апробирован в Сырдарьинской области.*

Ключевые слова: *поступления сверх прогноза, межбюджетные отношения, норматив распределения, территориальный бюджет, местный бюджет, фискальный стимул, регулирующий трансферт, налог на доходы физических лиц, налог на прибыль, налог на добавленную стоимость, фискальный федерализм, Сырдарьинская область.*

A DIFFERENTIATED MECHANISM FOR RETAINING ABOVE-FORECAST TAX REVENUES IN REGIONAL BUDGETS

Alimkulov Hikmatulla Bahrom ugli

Doctoral student,
Gulistan State University
E-mail: h.alimqulov@tsue.uz

Abstract. *The article develops a mechanism for retaining above-forecast tax revenues in regional budgets, differentiated by tax type and regional fiscal position. Using criteria scores, retention rates of 40.2, 21.1 and 4.2% are justified for personal income, profit and value-added taxes and tested in Syrdarya region.*

Keywords: *above-forecast revenue, intergovernmental fiscal relations, revenue-sharing*

rate, regional budget, local budget, fiscal incentive, equalization transfer, personal income tax, profit tax, value-added tax, fiscal federalism, Syrdarya region.

Kirish

Soliq stavkasi va bazasidan farqli ravishda, soliq tushumlarini budjet darajalari o‘rtasida taqsimlash normativi ko‘pincha hisob-kitob natijasi sifatida emas, budjet jarayonidagi kelishuv natijasi sifatida belgilanadi. Natijada bitta vosita orqali ikki qarama-qarshi maqsad ko‘zlanadi: hududni soliq bazasini kengaytirishga undash va hududlar o‘rtasidagi fiskal tafovutni qisqartirish.

O‘zbekistonda 2025–2026-yillarda yirik soliq to‘lovchilarning mol-mulk va yer solig‘i hududiy budjetlarga to‘liq o‘tkazildi, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tushumlarining bir qismi esa birinchi marta hududlarga biriktirildi [1; 2]. Biroq prognozdan ortiq tushum masalasi o‘zgarmadi. Ortiqcha tushum jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (JShDS) va foyda solig‘i bo‘yicha to‘liq, QQS bo‘yicha 60 foiz miqdorida yil ichida hududda qoldiriladi [3; 4]. Ammo keyingi yil prognozi joriy yil kutilayotgan ijrosidan kelib chiqib tuziladi va qo‘shimcha tushum tartibga soluvchi transfertning qisqarishi bilan qoplanadi [5]. Qolaversa, bu ulushlar soliqlarning iqtisodiy tabiatidagi farqni hisobga olmaydi: bir soliq bo‘yicha ortiqcha bajarilish hudud harakatini, boshqasi bo‘yicha esa ko‘proq prognoz xatosi yoki bozor konyunkturasini aks ettiradi.

Maqolaning maqsadi JShDS, foyda solig‘i va QQS bo‘yicha prognozdan ortiq tushumni hududiy budjetlarda qoldirishning soliq turi va hududning fiskal holatiga qarab tabaqalashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish hamda uni Sirdaryo viloyati va respublikaning o‘n to‘rt hududi ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Soliqlarni budjet darajalari o‘rtasida taqsimlash masalasi fiskal federalizm nazariyasida shakllangan. R. Musgrave qayta taqsimlash va barqarorlashtirish funksiyalarini asosan markaziy darajaga biriktirgan [6], W. Oates esa mahalliy jamoat ne’matlarini iste’molchiga eng yaqin daraja samaraliroq ta’minlashini asoslagan [7]. Ch. McLure tahriridagi tadqiqotda [8] va R. Bird ishlarida [9] biriktirish mezonlari tizimlashtirilgan: bazasi harakatchan, hududlar bo‘yicha notekis va siklga sezgir soliqlar yuqori darajaga, bazasi hududda joylashgan soliqlar quyi darajaga biriktiriladi. Bu tavsiyalar yo‘nalishni beradi, biroq ulush miqdorini aniqlamaydi.

Ikkinchi avlod nazariyasida B. Weingast mahalliy hokimiyat o‘sishdan keladigan qo‘shimcha daromadning sezilarli qismini saqlab qolgandagina soliq bazasini kengaytirishdan manfaatdor bo‘lishini ko‘rsatgan [10]. J. Rodden esa quyi budjetlarni muntazam qo‘llab-quvvatlash yumshoq budjet cheklovini yuzaga keltirishini asoslagan [11]. Demak, rag‘bat kanali zarur, ammo u transfert orqali qaytarib olinmasligi va xarajat intizomini buzmasligi kerak. OECD metodikasida taqsimlash ulushini yuqori daraja har yili belgilaydigan tizimlar quyi darajaning eng past avtonomiya toifasiga kiritiladi [12].

Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solish O.R. Meyliyev [13], budjetlararo mutanosiblikda soliqlarning roli A.X. Islamkulov [14], mahalliy budjetlar mustaqilligi U.Yu. O‘roqov [15], biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar muvofiqligi N.X. Turopova [16], hudud daromad salohiyati X.A. Qobulov [17] ishlarida tadqiq etilgan. Ularda taqsimlash ulushi asosan ekspert mulohazasi bilan asoslanadi, prognozdan ortiq tushum esa alohida rag‘bat vositasi sifatida o‘rganilmagan. Maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, indeks usuli, konsentratsiyani o‘lchash va ssenariy tahlili qo‘llanildi. Soliqning fiskal xususiyatlari yettita mezon bo‘yicha uch guruhda baholandi: fazoviy (bazaning lokallashuvi, notekisligi, harakatchanligi), vaqt (barqarorlik, siklik tebranuvchanlik, yirik to‘lovchilarda konsentratsiya) va ma’muriy (mahalliy hokimiyatning bazaga ta’sir ko‘rsata olishi, ya’ni rag‘bat salohiyati). Miqdoriy mezonlar rasmiy statistikadan hisoblandi, qolganlari soliqning huquqiy tuzilmasidan kelib chiqib 0; 0,5; 1 shkalasida baholandi [18]. Mezonlar noldan birgacha oraliqqa keltirilib, guruhlarga teng og‘irlik (1/3) asosida jamlandi:

$$Z_j = \Sigma_r\, w_r \cdot z_{rj}, \qquad \Sigma_r\, w_r = 1 \tag{1}$$

bu yerda Z_j j-soliqning jamlangan bali, z_{rj} r-mezonning normallashtirilgan qiymati, w_r uning og‘irligi.

Mexanizm uch bosqichdan iborat: i-hududda j-soliq bo‘yicha t-yilda prognozdan ortiq tushum aniqlanadi (2), bazaviy qoldirish normativi ballga mutanosib hisoblanadi (3) va hududiy tuzatuvchi ko‘paytuvchi kiritiladi (4):

$$O_{i,j,t} = \max(0;\, A_{i,j,t} - P_{i,j,t}) \tag{2}$$

$$k_j^{baz} = k_{min} + (k_{max} - k_{min}) \cdot Z_j \tag{3}$$

$$m_{i,t} = \min[1;\, (T\bar{R}_t / TR_{i,t})^{\eta}] \tag{4}$$

bu yerda A va P haqiqiy tushum va prognoz, mlrd so‘m; $k_{min} = 0$, $k_{max} = 50$ foiz; $TR_{i,t}$ aholi jon boshiga mahalliy budjet o‘z daromadlari, $T\bar{R}_t$ uning o‘n to‘rt hudud bo‘yicha o‘rtachasi; $\eta = 1$ tenglashtirish parametri. Yuqori chegara amaldagi pretsedentga tayanadi: 2024–2026-yillar qonunlarida yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning prognozdan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi alohida daromad moddasi sifatida ajratiladi [1; 2; 19].

Hududda qoladigan mablag‘ quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{i,j,t} = O_{i,j,t} \cdot k_j^{baz} \cdot m_{i,t} / 100 \tag{5}$$


$R_{i,j,t}$ alohida daromad moddasida aks ettiriladi va keyingi yil transfertini hisoblashda daromad bazasiga kiritilmaydi. Mexanizmning o‘zagi aynan shu shartdir.

Ma’lumotlar bazasi Sirdaryo viloyati mahalliy budjetlarining 2024–2025-yillardagi to‘qqizta soliq bo‘yicha reja va ijrosini [20; 21], o‘n to‘rt hudud bo‘yicha jami daromadlar reja va ijrosini [22; 23], 2020–2026-yillar qonunlaridagi normativlarni [2; 24] va statistika ma’lumotlarini [25] qamraydi. To‘rt ssenariy qiyoslandi: S0 amaldagi tartib; S1 barcha soliq va hududlar uchun yagona normativ (S2a bilan teng ikki yillik hajmga kalibrlangan, 31,6 foiz); S2a taklif etilayotgan mexanizm ($\eta = 1$); S2b hududiy tuzatishsiz variant ($\eta = 0$).

Tahlil va natijalar

2020–2026-yillar qonunlari tahlili taqsimlash normativining tizimli emasligini ko‘rsatadi. O‘n to‘rt hududdan o‘n birtasida JShDS va foyda solig‘i normativi yetti yil davomida 100 foiz bo‘lgan, individual qiymat faqat Navoiy viloyati, Toshkent viloyati va Toshkent shahri uchun belgilanadi va u o‘ta beqaror (1-rasm). Toshkent viloyatida JShDS normativi 34, 45, 42, 63, 38, 51 va 33 foizni tashkil etgan (amplituda 30 foiz bandi), variatsiya koeffitsiyenti esa normativ pasaygan sari oshadi: Navoiy viloyatida 0,117, Toshkent shahrida 0,388. Prognoz ham oldingi ijroga qat’iy bog‘langan: 2026-yil prognozining 2025-yil ijrosiga nisbati hududlar bo‘yicha 0,934–


1,174 oralig‘ida, variatsiya koeffitsiyenti 0,054. Shu bois ortiqcha tushum bir yildan keyin transfert orqali o‘zlashtiriladi va ko‘p yillik rag‘bat yuzaga kelmaydi.



1-rasm. JShDS bo‘yicha hududiy budjetlarda qoldiriladigan ulush dinamikasi, 2020–2026-yillar

Manba: 2020–2026-yillar uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunlar [1; 2; 19; 24] asosida muallif tomonidan tuzilgan. VK: variatsiya koeffitsiyenti.

Yagona qoldirish ulushining asossizligi prognoz aniqligidagi farqda ko‘rinadi (2-rasm). Sirdaryo viloyatida JShDS bo‘yicha prognozdan o‘rtacha absolyut chetlanish 4,2 foiz bandi, foyda solig‘i bo‘yicha esa 43,0 foiz bandi; 2024-yilda brutto ortiqcha bajarilishning 64,8 foizi birgina foyda solig‘i hisobiga to‘g‘ri kelgan.



2-rasm. Sirdaryo viloyati mahalliy budjetlarida soliq turlari bo‘yicha prognozning bajarilishi, 2024–2025-yillar

Manba: Sirdaryo viloyati Kengashi qarorlari [20; 21] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bu farqning sababi soliqlarning fiskal xususiyatlarida (1-jadval).

1-jadval.

Uchta asosiy soliqning fiskal xususiyatlari


Mezon	JShDS	Foyda solig‘i	QQS
Bazaning hududiy lokallashuvi	1,000	0,500	0,000
Baza harakatchanligi	0,500	0,000	0,000
Tushumlar barqarorligi	0,957	0,787	0,500
Siklik tebranuvchanlik	0,518	0,752	×
Konsentratsiya	0,500	0,000	0,000
Rag‘bat salohiyati	1,000	0,500	0,000
Jamlangan ball, (1)	**0,803**	**0,421**	**0,083**
Bazaviy qoldirish normativi, (3), foiz	**40,2**	**21,1**	**4,2**

Izoh: yuqori qiymat normativni oshirish tomon ta’sir ko‘rsatadi; «×» QQS bo‘yicha vaqt qatori shakllanmaganini bildiradi.

Manba: Sirdaryo viloyati Kengashi qarorlari [20; 21] va statistika ma’lumotlari [25] asosida muallif hisob-kitobi.

JShDS bazasi hududda shakllanadi va mahalliy hokimiyat bandlikni rasmiylashtirish orqali unga ta’sir ko‘rsata oladi, shu sababli bu soliq bo‘yicha ortiqcha bajarilish hudud harakatini aks ettiradi. Foyda solig‘ida yirik to‘lovchilar bosh korxona joyida hisobga olinadi va baza xomashyo konyunkturasiga bog‘liq. Uning past bali siklik tebranuvchanlik bilan emas (bu mezonda u JShDSdan yuqori: 0,752 va 0,518), balki lokallashuv, konsentratsiya va rag‘bat salohiyatining pastligi bilan izohlanadi. QQS bazasi harakatchan, ma’murchiligi markazlashgan. Demak, yagona ulush uch xil iqtisodiy hodisani bir xil mukofotlaydi.

O‘nta soliq uchun hisoblangan bazaviy normativlar 3-rasmda keltirilgan. Mol-mulk va yer soliqlari yuqori, aksiz va QQS quyi guruhda joylashadi, bu biriktirish nazariyasi tavsiyalariga mos keladi [8; 9]. Og‘irlik va normallashtirishning beshta variantida soliqlar tartibi barqaror qoldi (Spirmen koeffitsiyentining eng past qiymati 0,939).



3-rasm. (3) formula bo‘yicha hisoblangan bazaviy qoldirish normativlari, foiz

Manba: muallif hisob-kitobi; qavs ichida jamlangan ball.

Hududiy tuzatish ortiqcha bajarilishning o‘ta notekisligi tufayli zarur: 2024-yilda uning 87,3 foizi, 2025-yilda 43,3 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. (4) formula bo‘yicha ko‘paytuvchi

faqat beshta hudud uchun birdan kichik: Toshkent shahrida 0,460, Navoiy viloyatida 0,587, Toshkent viloyatida 0,838, Buxoro viloyatida 0,898, Sirdaryo viloyatida 0,959; qolgan to‘qqiz hudud bazaviy normativni to‘liq oladi. Bu hududlar ayni paytda eng kam transfert oluvchilardir, ya’ni tuzatish rag‘bat resursini u ko‘proq ta’sir qiladigan joyga yo‘naltiradi.

Sirdaryo viloyatida mexanizm tanlanuvchan ekani tasdiqlandi (2-jadval). Ikki yillik jami hajm S1 va S2a da teng (95,9 mlrd so‘m), lekin foyda solig‘i ustun bo‘lgan 2024-yilda S2a 26,4 foiz kam (20,6 va 28,0 mlrd so‘m), ortiqcha bajarilishning 66,6 foizi JShDS hamda yuridik shaxslarning yer va mol-mulk solig‘iga to‘g‘ri kelgan 2025-yilda esa 10,9 foiz ko‘p (75,3 va 67,9 mlrd so‘m) mablag‘ qoldiradi.

2-jadval.

Sirdaryo viloyatida ortiqcha bajarilishning ssenariylar bo‘yicha taqsimoti, mlrd so‘m

Soliq turi (2025-yil)	Ortiqcha bajarilish	S2a normativi, %	S1	S2a	S2b
JShDS	62,9	38,5	19,8	24,2	25,2
Yuridik shaxslarning yer solig‘i	43,7	41,4	13,8	18,1	18,8
Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i	36,6	37,3	11,6	13,7	14,2
Foyda solig‘i	36,3	20,2	11,5	7,3	7,6
Boshqa beshta soliq	35,5		11,3	12,1	12,5
2025-yil, jami	**215,1**		**67,9**	**75,3**	**78,5**
2024-yil, jami	**88,8**		**28,0**	**20,6**	**21,4**

Izoh: S2a normativi bazaviy normativning tuzatuvchi ko‘paytuvchiga (0,959) ko‘paytmasi; jami satrlar yaxlitlanmagan ma’lumotdan hisoblangan.

Manba: Sirdaryo viloyati Kengashi qarorlari [20; 21] asosida muallif hisob-kitobi.

2025-yilda qoldiriladigan 75,3 mlrd so‘m tartibga soluvchi transfertning 9,3 foizi va o‘z daromadlarining 3,9 foiziga teng. Soliq bazasi prognozga nisbatan 10 foizga kengaysa, JShDS bo‘yicha hududda 30,6 mlrd so‘m (o‘z daromadlarining 1,6 foizi), foyda solig‘i bo‘yicha esa 3,5 mlrd so‘m qoladi. Bu rag‘bat signali uchun yetarli, ammo budjet muvozanatini buzmaydi.

Respublika miqyosida (3-jadval) hududiy tuzatish Toshkent shahrining ulushini 43,3 foizdan 27,6 foizga, jon boshiga qoldirilgan mablag‘ning variatsiya koeffitsiyentini 34,5 foizga kamaytiradi va taklif narxini 2025-yilda 27,6 foizga arzonlashtiradi. S2a narxi 1 252,6 mlrd so‘m, ya’ni davlat budjeti daromadlarining 0,35 foizi [23]. O‘z daromadlarining yalpi hududiy mahsulotga elastikligi amaldagi tartibda 0,598, S2a da 0,602 bo‘lib, mexanizm regressivlikni kuchaytirmaydi.


3-jadval.

Hududlar darajasida ssenariylarning qiyosiy natijalari

Ko‘rsatkich	2024: S1	2024: S2a	2025: S1	2025: S2a
Qoldiriladigan jami mablag‘, mlrd so‘m	366,2	201,5	1 731,2	1 252,6
Toshkent shahrining ulushi, %	87,3	77,1	43,3	27,6
Jon boshiga mablag‘ning variatsiya koeffitsiyenti	3,171	2,778	1,316	0,862
O‘rtacha moliyaviy mustaqillik, %	75,9	75,8	78,5	78,4

Manba: O‘RQ-886 va O‘RQ-1011-son qonunlar [1; 19] hamda budjet ijrosi hisobotlari [22; 23] asosida muallif hisob-kitobi.

Amaldagi tartib va taklif etilayotgan mexanizm o‘rtasidagi asosiy farq 4-rasmda ko‘rsatilgan: u normativlarning tabaqalanishida emas, oxirgi bosqichda, ya’ni qoldirilgan mablag‘ning transfert bazasidan chiqarilishida.



4-rasm. Prognozdan ortiq tushumni qoldirishning amaldagi tartibi va taklif etilayotgan mexanizm

Manba: muallif ishlanmasi; amaldagi tartib PQ-388 va PQ-397-son qarorlar [4; 5] asosida.

Mexanizmni joriy etish uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonunga yoki Prezident qaroriga tabaqalashtirilgan ulushlarni kiritish [26], qoldirilgan mablag‘ni alohida daromad moddasi sifatida transfert hisoblash bazasidan chiqarish va prognozning quyi chegarasini belgilash zarur, chunki ortiqcha tushumni qoldirish prognozni ataylab pasaytirishga undashi mumkin:

$$P_{i,t} \geq A_{i,t-1} \cdot (1 + g_t) \quad (6)$$

bu yerda g_t nominal o‘sish sur’ati prognozi; chegaradan pastga chiqishga faqat hujjatlashtirilgan sabablar bilan yo‘l qo‘yiladi.

Xulosa

Birinchidan, prognozdan ortiq tushum bo‘yicha amaldagi tartib ko‘p yillik rag‘bat yaratmaydi: individual normativlar beqaror, ortiqcha tushum esa keyingi yil prognoz bazasiga kirib, transfert orqali o‘zlashtiriladi.

Ikkinchidan, uchta asosiy soliq fiskal xususiyatlari bo‘yicha keskin farqlanadi (jamlangan ball 0,803, 0,421 va 0,083), shuning uchun ularga yagona ulush qo‘llash asossiz. Mezonlar tizimi asosida JShDS, foyda solig‘i va QQS uchun 40,2, 21,1 va 4,2 foizlik bazaviy qoldirish normativlari asoslandi.

Uchinchidan, Sirdaryo viloyatidagi sinov mexanizmning mukofotni ortiqcha tushum hajmiga emas, manbasiga qarab belgilashini ko‘rsatdi, hududiy tuzatish esa rag‘bat resursining poytaxtda to‘planishini cheklab, taklif narxini davlat budjeti daromadlarining 0,35 foizi darajasida ushlab turadi.

To‘rtinchidan, taklif amaldagi huquqiy tizim doirasida joriy etilishi mumkin: tabaqalashtirilgan ulushlarni yillik qonunga kiritish, qoldirilgan mablag‘ni transfert bazasidan chiqarish va prognozning quyi chegarasini belgilash yetarli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7277618
2. “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7949060
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-son «O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-388-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7959569
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PQ-397-son «Davlat budjeti daromadlarini prognozlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
6. Musgrave R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. New York: McGraw-Hill, 1959. 628 p.
7. Oates W.E. An Essay on Fiscal Federalism // Journal of Economic Literature. 1999. Vol. 37, No. 3. P. 1120–1149.
8. McLure Ch.E. (ed.) Tax Assignment in Federal Countries. Canberra: Centre for Research on Federal Financial Relations, Australian National University, 1983. 391 p.
9. Bird R.M. Rethinking Subnational Taxes: A New Look at Tax Assignment. IMF Working Paper WP/99/165. Washington, DC: International Monetary Fund, 1999. 54 p.
10. Weingast B.R. Second Generation Fiscal Federalism: The Implications of Fiscal Incentives // Journal of Urban Economics. 2009. Vol. 65, No. 3. P. 279–293.
11. Rodden J.A. Hamilton’s Paradox: The Promise and Peril of Fiscal Federalism. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 329 p.
12. OECD. Tax Autonomy Survey: Methodological Guide. OECD Network on Fiscal Relations across Levels of Government. Paris: OECD. URL: https://www.oecd.org
13. Meyliyev O.R. Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022. 73 b.
14. Islamkulov A.X. Budjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. 71 b.
15. O‘roqov U.Yu. Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishni takomillashtirish yo‘llari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. 54 b.
16. Turopova N.X. Mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning muvofiqligini ta’minlash muammolari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz, 2025. 67 b.
17. Qobulov X.A. Hudud daromad salohiyati shakllanishining metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2026. 245 b.
18. Xamdamov Sh.K. Social protection and poverty alleviation: financing strategies and comparative practices in developed and developing countries. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(04), 264-270.
19. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonun bilan tasdiqlangan // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-4674902
20. “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

21. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2025-yil 4-martdagi VII-10-47-9-0-K/25-son “Viloyat, tuman va shahar mahalliy budjetlarining 2024-yil 4-chorak daromadlar rejalari miqdorlarini hamda 2024-yil yillik daromadlar va xarajatlar ijrosi hisobotlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

22. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2026-yil 20-fevraldagi VII-31-34-9-0-K/26-son qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2024-yil ijrosi yuzasidan hisobot. Toshkent, 2025.

24. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlarining 2025-yil ijrosi yuzasidan hisobot. Toshkent, 2026.

25. “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/uz/docs/-4623758

26. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari: hududlar bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot va aholi soni. URL: https://stat.uz

27. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi: 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonun bilan tasdiqlangan // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-2304138